

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)



## Doimiy aholi soni.

Surxondaryo viloyati doimiy aholisi soni 2020-yil 1-aprel holatiga 2640,6 ming kishini tashkil etib, 2020-yilning yanvar-mart oylarida 11,5 ming kishiga yoki 0,4 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 932,7 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 35,3%), qishloq aholisi soni 1707,9 ming kishini (64,7 %) tashkil etdi.

### E'tibor bering: 2020-yil yanvar-mart

- Aholi soni 11,5 ming kishiga ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni 14,9 ming nafarni tashkil etdi.
- 2,7 mingta vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida 4,3 mingta nikoh va 0,5 mingta ajralishlar ro'yxatga olindi.

## Surxondaryo viloyati aholisining umumiyo'sishi (2020-yil yanvar-mart oylarida)

**Tirik tug'ilganlar  
14,9 ming bola**

Tabiiy  
o'sish  
+12,2  
ming kishi

**Ko'chib kelganlar  
2,2 ming kishi**


Mexanik  
o'sish  
(kamayish)  
-0,7  
ming kishi

Aholining  
umumiyo'sishi  
11,5  
ming kishi

**Vafot etganlar  
2,7 ming kishi**

**Ko'chib ketganlar  
2,9 ming kishi**

### Hudular kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanish (2020-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, ming kishi)



Surxondaryo viloyati hududlari kesimida tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020-yil 1-aprel holatiga eng ko‘p aholi soni Denov tumani 384,6 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,6% ni) va Qumqo'rg'on 236,6 ming kishini (9,0 %), Jarqo'rg'on 218,7 ming kishini (8,3 %), aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 72,0 ming kishi (2,7 %) tashkil etdi.



**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o‘tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi  
(2019-2020-yillar 1-aprel holatiga ko‘ra, ming kishi dastlabki ma`lumot )**

<b>Hududlar</b>	<b>2019-yil</b>	<b>2020-yil*</b>	<b>O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur`ti, %</b>
Surxondaryo viloyati	<b>2580,8</b>	<b>2640,6</b>	<b>102,3</b>
Termiz sh.	145,5	180,7	124,2
tumanlar:			
Oltinsoy	172,9	177,2	102,5
Angor	130,1	132,9	102,2
Boysun	117,9	116,4	98,7
Bandixon		72,0	
Muzrabot	138,9	141,9	102,2
Denov	377,3	386,4	102,4
Jarqo‘rg‘on	214,0	218,7	102,2
Qumqo‘rg‘on	239,0	236,6	99,0
Qiziriq	170,3	114,6	67,3
Sariosiyo	202,7	207,2	102,2
Termiz t.	107,2	77,5	72,3
Uzun	171,1	175,0	102,3
Sherobod	189,7	194,2	102,4
Sho‘rchi	204,2	209,3	102,5

\*) dastlabki ma`lumot

Surxondaryo viloyati hududlari kesimida tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020-yil 1-aprel holatiga eng ko‘p aholi soni Denov tumani 384,6 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,6 % ni) va Qumqo‘rg‘on 236,6 ming kishini (9,0 %), Jarqo‘rg‘on 218,7 ming kishini (8,3 %), aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 72,0 ming kishi (2,7 %) tashkil etdi.

## Demografik holat

**Jinsi bo'yicha doimiy aholi sonining bo'linishi  
(2020-yil 1-aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)**

<b>Hududlar</b>	<b>erkak</b>	<b>ayol</b>
Surxondaryo viloyati	<b>1334,2</b>	<b>1306,4</b>
Termiz sh.	89,1	91,6
tumanlar:		
Oltinsoy	91,0	86,2
Angor	66,6	66,3
Boysun	59,5	56,9
Bandixon	36,5	35,5
Muzrabot	70,4	71,5
Denov	197,1	189,3
Jarqo'rg'on	112,2	106,5
Qumqo'rg'on	117,2	119,4
Qiziriq	57,8	56,8
Sariosiyo	103,3	103,9
Termiz t.	39,0	38,5
Uzun	89,4	85,6
Sherobod	98,5	95,7
Sho'rchi	106,6	102,7

**Tug‘ilish.** 2020-yilning yanvar-mart oylarida 14,9 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va bundan keyin tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti 22,7 promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,6 promillega oshgan (2019-yilning yanvar-mart oylarida 22,1 promille bo‘lgan).

**Tug‘ilish koeffitsiyenti** 2019-yilning mos davriga nisbatan Termiz shahrida (20,6 promilledan 27,4 promillega) Oltinsoy (21,3 promilledan 23,5 promillega), Boysun (21,3 promilledan 22,5 promillega) kuzatildi.

**Ma‘lumot uchun**

Tirik tug‘ilganlik mezonlariidan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullar -ning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa ham bola **tirik tug‘ilgan hisoblanadi**. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.

### **Tug‘ilishlar sonining o‘tgan yilning shu davrga nisbatan taqqoslanishi (2019-2020-yil yanvar-mart , kishi)**



Hududlar	2019-yil	2020-yil*	O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ti, %
Surxondaryo viloyati	<b>14 041</b>	<b>14 861</b>	<b>105,8</b>
Termiz sh.	739	1229	166,3
tumanlar:			
Oltinsoy	905	1033	114,1
Angor	693	745	107,5
Boysun	617	649	105,2
Bandixon		399	
Muzrabot	718	717	99,9
Denov	2163	2218	102,5
Jarqo‘rg‘on	1248	1321	105,8
Qumqo‘rg‘on	1335	1261	94,5
Qiziriq	1027	703	68,5
Sariosiyo	1084	1047	96,6
Termiz t.	581	504	86,7
Uzun	872	894	102,5
Sherobod	1025	1058	103,2
Sho‘rchi	1034	1083	104,7


**Hududlar kesimida tug‘ilish koeffitsiyenti  
(2019-2020-yil yanvar-mart )**

	<b>2019-y.</b>	<b>2020-y.</b>	<b>O ‘sish sur’ati o‘tgan yilga nisbatan %</b>
Surxondaryo viloyati	<b>22,1</b>	<b>22,7</b>	<b>102,7</b>
Termiz sh.	20,6	27,4	133,0
tumanlar:			
Oltinsoy	21,3	23,5	110,3
Angor	21,6	22,6	104,6
Boysun	21,3	22,5	105,6
Bandixon		22,4	
Muzrabot	21,0	20,4	97,1
Denov	23,3	23,1	99,1
Jarqo‘rg‘on	23,7	24,3	102,5
Qumqo‘rg‘on	22,7	21,5	94,7
Qiziriq	24,5	24,7	100,8
Sariosiyo	21,7	20,4	94,0
Termiz t.	22,0	26,2	119,1
Uzun	20,7	20,6	99,5
Sherobod	21,3	22,0	103,3
Sho‘rchi	20,6	20,8	101,0

## Vafot etganlar

**Vafot etganlar.** 2020-yilning yanvar-mart oylarida 2,7 mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil etdi, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega kamaydi (2019-yilning yanvar-mart oylarida 3,8 promille bo‘lgan).

**O‘lim koeffitsiyenti** 2019-yilning mos davriga nisbatan ko‘payishi Angor (3,5 promilledan 4,0 promillega), Qumqo‘rg‘on (3,6 promilledan 4,2 promillega), Termiz tumani (4,8 promilledan 5,8 promillega), Qumqo‘rg‘on (3,6 promilledan 4,2 promillega) tumanlarida kuzatildi.



### Hududlar kesimida vafot etganlar soni (2019-2020 yil yanvar-mart, kishi)


	2019-y.	2020-y.	O‘sish sur’ati o‘tgan yilga nisbatan %
Surxondaryo viloyati	<b>2 402</b>	<b>2 695</b>	<b>293</b>
Termiz sh.	158	169	11
tumanlar:			0
Oltinsoy	148	152	4
Angor	111	129	18
Boysun	93	108	15
Bandixon	0	50	50
Muzrabot	126	138	12
Denov	375	369	-6
Jarqo‘rg‘on	237	257	20
Qumqo‘rg‘on	211	250	39
Qiziriq	135	141	6
Sariosiyo	158	172	14
Termiz t.	127	153	26
Uzun	143	158	15
Sherobod	185	202	17
Sho‘rchi	195	247	52

## Demografik holat

2020-yilning yanvar-mart oylarida 2,7 ming nafar o‘lim qayd etilgan bo‘lib, vafot etganlarning 64,6 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 5,7 % i o‘sintalardan, 3,1 % i baxtsiz hodisa,zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,2 % i ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 5,4 % i nafas olish a‘zolari kasalliklaridan , hamda 17,0 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro‘yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,2 ming nafarni tashkil etib, ularning 38,2 % perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 18,8 % nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 16,7 % tug‘ma anomaliyalardan, 16,1 % i ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan vafot etgan,hamda 10,2 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

**Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha taqsimlanishi  
(jami vafot etganlarga nisbatan, % da)**



**Tabiiy o‘sish.** 2020 yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o‘sishi 12,2 ming kishini tashkil etib, 2019-yil mos davriga nisbatan 0,6 ming kishiga (2019-yilning yanvar-mart oylarida 11,6 ming kishi bo‘lgan) o‘sgan.



Tabiiy o‘sish:  
12,2 ming kishi

## Demografik holat

### Nikoh.

2020-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 4,3 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,6 promilleni tashkil etdi. Tuzilgan nikohlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan kamyish sur'atlari Qumqo'rg'on (49 kishi), Jarqo'rg'on (60 kishi), Denov (87 kishi) Termiz tumani (50 kishi) to'g'ri kelmoqda.



### Tuzilgan nikohlar va ajrimlar taqsimlanishi (2019-2020-yil yanvar-mart , o'sish o'tgan yilga nisbatan )



### Nikohdan ajralishlar.

2020-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,5 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan koeffitsiyenti, 0,7 promilleni tashkil etdi. Ajrimlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan yuqori ko'payish sur'atlari Denov (11 kishi), Qumqo'rg'on tumani (6 kishi), Sherobod tumani (6 kishi), to'g'ri kelmoqda.

Hududlar	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2019-y.	2020-y.	O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan +,- (kishi)	2019-y.	2020-y.	O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan +,- (kishi)
Surxondaryo viloyati	4 584	4 315	-269	421	472	51
Termiz sh. tumanlar:	224	193	-31	37	47	10
Oltinsoy	240	242	2	17	27	10
Angor	217	239	22	21	14	-7
Boysun	174	155	-19	19	21	2
Bandixon	0	0	0	0	0	0
Muzrabot	242	274	32	21	19	-2
Denov	633	546	-87	67	78	11
Jarqo'rg'on	444	384	-60	42	25	-17
Qumqo'rg'on	419	370	-49	25	31	6
Qiziriq	278	264	-14	29	22	-7
Sariosiyo	472	456	-16	35	44	9
Termiz t.	191	141	-50	23	22	-1
Uzun	355	327	-28	38	37	-1
Sherobod	289	338	49	22	40	18
Sho'rchi	406	386	-20	25	45	20

**Migratsiya.** 2020-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2,2 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 2,9 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,7 ming kishi bo'lib, 2019-yilning mos davrida minus 0,7 ming kishi bo'lган.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi) (2019-2020-yil yanvar-mart )

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Denov tumanida (minus 0,5 ming kishi), Jarqo'rg'on (minus 0,2 ming kishi), Qumqo'rg'on (minus 0,1 ming kishi), Qiziriq (minus 0,1 ming kishi), qayd etildi.

	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart
<b>Ko'chib kelganlar</b>	2,6	2,2
<b>Ko'chib ketganlar</b>	3,3	2,9
<b>Migratsiya saldosi</b>	-0,7	0,7



**Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi**

**(76) 225-65-60**

**(76) 223-07-09**